

# Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 6 (67327)  
2021-yil 8-fevral

# Yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

*Misli ummondir jahon ichra Navoiy nomasi,  
Unga izdosh Hazrati Boburni «Boburnoma»si.*



Alisher Navoiy tavalludiga 580 yil



14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur  
tavallud topgan kun

*«Turkiy til bila to she'r  
aytibdurlar, hech kim  
oncha ko'p va xo'ib  
aytqon emas»  
Zahiriddin Muhammad  
BOBUR*

**Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchilari buyuk shoir va mutafakir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavaludi munosabati bilan o'zaro bellashdilar.**

**– Navoiy ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan mustahkam o'rin egallagan, – dedi maktab direktori Mamlakat Abduvaliyeva.**





# NAVOIY SABOQLARI

**Mustaqillik davriga kelib, barcha o'quv fanlari singari tarix fanini o'qitishda ham milliylik, milliy g'oya tamoyillariga asoslanish bosh mezonga aylandi.**

Tarixiy voqelikning haqqoniy yoritilishi jihatidan o'nlab mumtoz adiblarimiz, xususan, bu yil 580 yillik tavallud sanasi nishonlanayotgan Mir Alisher Navoiyning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlari muhim va ibratli manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy asarlarini o'rgangan tarix o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlari davomida ushbu manbalardan unumli foydalansa, faqat dars saviyasigina oshmaydi, balki yosh avlodning ma'naviy dunyosi boyib boradi.

Mutafakkir bobomizning «Xamsa» asarida qator badiiy obrazlar bilan bir qatorda, tarixiy obrazlar ham muhim o'rin tutadi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, sulton Husayn Boyqaro va uning o'g'illariga oid epizodlar, kichik-kichik voqealar tasviri Vatan tarixining shu davrlariga doir mavzuni o'tayotgan o'qituvchi uchun qo'shimcha tarixiy dalil vazifasini bajaradi. Badiiy ifoda etilgan voqelik, agar o'qituvchi tomonidan soddalashtirilib, badiiy jozibasiz saqlangan holda o'quvchilarga taqdim etilsa, bunday tarix darsi hech qachon o'quvchining yodidan chiqmaydi. Masalan, «Hayrat ul-abror» dostonida Sulton Husaynning taxt uchun olib borgan jang-u jadallari payti bir onaxonning o'g'li halok bo'lgani, kimsasiz qolgan ona sultonga da'vo bilan chiqqani, uni qozi huzuriga olib borgan haqidagi bir hikoyat keladi. Hikoyatda Husayn Boyqaro bir tomonga oltin to'la hamyon og'zini ochib qo'ygani, boshini kampirning oldida egib, «o'g'lingiz xuni uchun oltin-javohir so'rasangiz mana oltin, agar bunga rozi bo'lmasangiz, boshimni olishga ham haqqingiz bor», degani bayon etiladi. Navoiyning do'sti, zamondoshi bo'lgan hukmdorning qo'li ostidagi kimsasiz, qashshoq bir fuqaroga shunday muomala qilishi, o'z-o'ziga adolatli hukm chiqarishi haqidagi voqea, albatta, o'quvchida o'chmas, ibratli taassurot qoldiradi.

Bundan tashqari, «Xamsa» dostonlarida bir qancha xorij hukmdorlari, jahon tarixida ma'lum-u mashhur kishilar haqida so'z yuritiladi. Iskandar Zulqarnayn, Doro, Xusrav, Bahrom kabi podshohlar, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi mutafakkirlar obrazi faqat dostonlarda badiiy vazifa bajarmaydi, o'quvchining jahon tarixiga oid haqiqatlarni kashf etishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, «Saddi Iskandariy» dostonida Navoiy bobomizning tarixiy manbalarni naqadar yaxshi bilishi, tarixiy shaxslar haqida chuqur tahlil, xolislik bilan fikr yuritishi ko'zga tashlanadi. Bunda Navoiy sultanatlar, o'tmish hukmdorlari haqida so'z yuritir ekan, biron joyda o'z bilganicha yoki eshitganlariga

tayanib yozmaydi. Balki bir emas, bir nechta tarixiy manbalarni solishtirib, ularning hammasini o'zaro qiyoslab, mumtoz tarixchilar tomonidan eng ishonchli deb tan olingan dalillarnigina asariga kiritadi.

Alisher Navoiyga xos bu kabi tarixiy aniqlik, xolislik va ilmiy mukammallikning bosh sababi u zotning imon-e'tiqodi, hamma ishlari, fikr-qarashlarini shariat mezoni bilan o'Ichaganida bo'lsa kerak. Yana bir muhim jihat, bobomizning badiiy ijodan tashqari ilmiy asarlar, xususan, tarixiy kitoblar ham yozgani bilan bog'liq. Mutafakkirning bevosita tarix nomi bilan ataladigan ikkita asari bor. Ularning biri «Tarixi anbiyo va hukamo», ikkinchisi «Tarixi mulki Ajam» deb nomlanadi.

Bu asarlar Navoiy bobomizning «Xamsa» kabi ulkan asarlardagi tarixiy obrazlarni mukammal tasvirlashiga asos bo'lishi bilan bir qatorda, alohida tarixiy asar sifatida ham ulkan qimmatga ega.



Har birimizga adabiyotni sevgan odamdan yomonlik chiqmasligi, u esa ko'p so'zlash emas, ko'p o'qib, mulohaza qilmoq ekanligini uqtirdi. Bugun biz farzandlar ilm yo'lidan ketdik, hazrat Alisher hikmatlariga yukindik.

Yodimda, akam ilk bor oliy ta'lim muassasasi imtihonlaridan yiqilib, ma'yus torganida, onam unga Navoiyning quyidagi bayti orqali tasalli bergan:

«Urug' yerga tushib chechak bo'ldi,

## MENING «XAMSA»XON ONAM

**Ilk bor Navoiyni onam tilidan anglaganman.  
«Xamsa» baytlarini yurak shevasiga aylantirgan  
volidam bizga bolalikdan dunyoni ravshanroq,  
tafakkur ila ko'rsatishga urindi.**

*Qurt jondan kechib ipak bo'ldi.  
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?  
Pilla qurticha himmating  
yo'qmu?*

Bolam, hazratimiz urug' yerga tushgach chechak bo'lganligi va bizning ham shunday g'ayratli bo'lishimiz kerakligini ta'kidlayaptilar. Shuning uchun o'ksinma, himmatli bo'l, Alloh oyoqlarimdan ayirdi, dema, balki qanot ato etayotgandir!».

Biz shu ovozda dunyoni tingladik. Sabr, g'ayrat, saxovat-u himmatni, charx go'zalligi-yu, tafakkur durdonalarini mana shu sas orqali yangrayotgan Navoiydan o'rgandik. Uning bitiklarida hayot xaritasi bordek, go'yo. U hayot yo'llarimiz nurafshonligini anglatadi.

Onam aytganlaridek, ul zot orqali Yaratganning ne'matlariga shukur dedik, kuyish kerak bo'lsa, Yaratgan ishqida yonmoqlikni uqdik. Zero, Mir Alisher bobomiz Olloh himmatining cheksizligi ifodasi sifatida bir g'azalida shunday deydi:

**Bo'lmag'ay erdi muyassar, «Xamsa» ya'ni panji ganj qilmasa erdi madad holimg'a besh olti abo.**

Yoki yana bir g'azalida boshimizga neki kelsa taqdiridan, biz esa uni xoh g'azab, xoh inoyat bilib qabul qilishimiz mumkinligini va so'nggi xulosa o'zimizdan ekanligini aytadi:

**Ne kelsa charxdin, ich bidakim, tafovuti yo'q,  
Agar inoyat etarsen anga, yo'q ersa g'azab.**

Vatan dardi va yurt ishqini, ilmsizlik azobi-yu, bilim marvaridlarini Navoiy ijodida his qilamiz.

Bugun dilimga 300 ga yaqin g'azalni tuydim. Ularni volidam sharofati bilan hayotga tatbiq etmoqlikni o'rgandim.

Hamonki, Navoiy deyilganida, uning «Guli Ra'no»si o'tlig' onam ko'z oldimda gavdalanadi. Ul ism sharofati ila hazrat qalbidam barhayotdur.

**E'zoza UMURZOQOVA,  
Navoiy shahridagi  
12-DIUM 11-sinf  
o'quvchisi**

# DAHOLARNING DAHOSI

**Turkiy xalqlar adabiyotining sardori, buyuk mutafakkir, o'lmas asarlarida hali-hamon yashab kelayotgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomizning tavalludiga 580 yil to'ldi.**

U nafaqat o'z zamonasining, balki bugungi kun qahramonidir. Zamona-mizning yetuk shoiri Abdulla Oripov shunday yozadi:

**Besh asrkim nazmiy saroyini,  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni –  
Qalam bilan oldi Alisher.**

shoir sifatida taniladi. Alisher Navoiy insonparvarlik tim-soli, turkiy til asoschisi. Uning har bir ijod namunasi Vatanni sevish, ahillik, yaxshilik va ezgulikka chorlaydi. Allo-maning «Farhod va Shirin» dostonida inson komillikka qanday erishishi-yu komil inson qanday bo'lishi haqida ham fikr yuritilgan. – Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy uchun insonparvarlik, komillik oliy o'rinda turgan va butun hayoti davomida o'zi ham shu hislatlarga amal qilib yashagan. Uning ibratli hayot yo'li barchamizga o'rnak.

Hozirgi kunda ulug' shoir Alisher Navoiyning iste'dodiga butun dunyo tan bergan. Jahonning yirik shaharlarida shoirning haykallari qad rostlab turibdi. Har kuni haykallar-niing poyiga gullar qo'yilib, shoir-niing porloq xotirasiga hurmat bajo keltiriladi. Uning nodir asarlari ko'plab chet tillariga tarjima qili-nib, chet ellik navoiyxonlarni ham bahramand qilmoqda.



Nizomiddin Mir Alisher Navoiy yosh-ligidanoq she'r mashq qila boshlagan. Bo'lajak shoir o'zining:

**Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur  
har laha yosh,  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz  
nihon bo'lg'och quyosh**

misrali g'azali bilan mavlono Lutfiyning nazariga tushadi. U o'n besh yoshlarida

Dunyo tan olgan alloma, bizning ajdodimiz ekanligidan faxrlanamiz va unga munosib avlod bo'lishga harakat qilamiz.

**Muyassar XOLIQULOVA,  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l  
tumanidagi 19-umumta'lim  
maktabining 10-sinf o'quvchisi**

## VATAN ICHRA VATAN



**Har birimiz oila deb atalmish muqaddas qo'rg'anni yaxshi ko'ramiz, unga kichikligimizdan mehr qo'yamiz, ushbu maskanning gullab-yashnashi uchun harakat qilamiz.**

Men kamol topayotgan oilada ana shu azaliy urfga rioya qilinadi. Har birimiz kitob, gazeta va jurnallar mutolaa qilishga alohida mehr qo'yganmiz. Dadajonim yilning to'rt faslida ham yer bilan tillashadi. Shu bois, tomorqamiz hamisha bahordek tuyuladi. Onajonim esa o'qituvchi, bizni yoshligimizdan kitobxonlikka, gazetxonlikka o'rgatgan.

Ustozim – tasviriy san'at fani o'qituvchisi Nodira opa To'xtayevaga bo'lgan mehrim sabab rasm chizishga, to'qishga ham havasim ortdi. Oddiy gulqog'oz, yelim idishlardan turli gullar yasayman. Bo'yoqlar yordamida tabiatning go'zal manzaralarini qog'ozga tushiraman, bo'sh vaqt topdim deguncha to'quvchilik, tikuvchilik bilan shug'ullanaman. Kelajakda dizayner bo'lish orzum bor. Istagim, yer yuzidagi barcha insonlar kichik qo'rg'oni – oilasini hamisha asrab-avaylasin.

**Bahora KARIMOVA,  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on  
tumanidagi 19-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi**


### Lesson 6

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## GRAMMAR EXERCISES

1. Match the words on the left with their opposite adjectives on the right.

- |          |            |
|----------|------------|
| 1) early | a) fast    |
| 2) cold  | b) foolish |
| 3) hard  | c) high    |
| 4) low   | d) hot     |
| 5) old   | e) late    |
| 6) slow  | f) sick    |
| 7) thin  | g) soft    |
| 8) weak  | h) strong  |
| 9) well  | i) thick   |
| 10) wise | j) young   |



2. House words:



1. Where do you find fridge?



2. Where do you find sofa, TV, beautiful carpet?



3. Where do you find cup, knife, fork?



4. Where do you find toys?



5. Where do you find bed, pillows?

**Zilola SIROJIDDINOVA,  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi  
41-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi**

## ALISHERBEK VA HUSAYN

## QATNASHUVCHILAR:

Iqbol MIRZO,  
O'zbekiston  
Xalq shoiri

**Alisherbek** – dastlab 6, keyin 11 yoshlarda.  
**Husayn** – 13 yoshlar atrofida.  
**Roviy** – mo'ysafid donishmand.  
**G'iyosiddin Bahodir** – 40 yoshlarda, Alisherbekning otasi.  
**Alisherning onasi** – 30 yoshlarda.  
**Darvishali** – 8 yoshlarda, Alisherbekning ukasi.  
**Sharafiddin Ali Yazdiy** – 70 yoshlarda.  
**Mavlono Lutfiy** – 85 yoshlarda.

**Mirsaid Kobuliy** – 50 yoshlarda.  
**Muhammadali G'aribiy** – 45 yoshlarda.  
**Barlos Botir** – 75 yoshlarda, kekxa siphoh.  
**Domla Murod** – 60 yoshlarda, kimyogor olim.  
**Ahror Ahmad** – 65 yoshlarda, sahhof.  
**Muhammad Sharif** – 50 yoshlarda, forsigo'y qalamkash.  
**Xusrav** – 12 yoshlarda, olako'z bola.  
**Husaynning singillari, mahalla bolalari, mulozim va boshqalar.**

BIRINCHI  
KO'RINISH

*Qorong'i sahna yorishib, Navoiy davri libosida Roviy chiqib keladi.*

**Bayt – qo'shiq:**  
*Biyik maqomlig' el tifi  
 erkanda ham bo'lmas,  
 Ki, tiyra qilg'ay ani jah-lu  
 zulmat ahli tili.  
 Qamar chirog'i bo'lsa agar  
 barcha bir kechalik,  
 Ne nav' o'chirgay ani,  
 shabparak qanoti yeli?*

**Roviy:** – Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Mendan avval salom bergan nabiralaringa, «Vaalaykum assalom», deymen. Qiziq, hozir o'ylab qoldim: avval kim salom berishi kerak? Yoshi ulug' – menmi yoki siz kichikintoylarmi? Taomilga ko'ra, yoshi kichik – kattaga, ozchilik – ko'pchilikka, mehmon – mezbonga avval salom berishi farz hisoblanadi. Yana, insonning ko'nglini ardoqlaydigan xalqimiz o'tliq odam piyodaga salom berishi kerak, deb hisoblaydi. Men boyman, nufuzim baland, amaldorman, deb kekayish va boshqalardan salom kutish odobsizlik sanaladi.

Bir kuni Navoiy bobo shogirdlari bilan otda ketayotgalar, yo'l chetida o'ynab o'tirgan uch-to'rt yashar bolaga ko'zlarini tushibdi. Navoiy bobomiz to'xtab, otdan tushib, bolakayga salom beribdilar. Qo'l olib so'rashibdilar. Peshonasidan o'pib, yana yo'lida davom etarkanlar, shogirdlaridan biri hayratini yashirolmay, shunday savol tashlabdi: «Ustoz, sizni ko'rgan inson borki, avvalroq salom berib hurmat ko'rsatishga shoshiladi. Hatto Sulton Husayn Mirzo ham o'rnidan turib salom berganini ko'rganmiz. Siz nechuk bir jujuqqa salom berib bunchalar e'zoz ko'rsatdingiz?»

Bu savolga bobomiz: «Gap shundaki, bu bolacha menga maktabda ta'lim bergan ustozimning nabirasidir», deb javob bergan ekanlar. «Ustoz otangdek ulug'», degan hikmatning ma'nosi shulkim, ota sizni dunyoga keltirgan bo'lsa, asl ustoz dunyoni sizga tanitgaydir.

**Haq yo'linda kim senga bir harf  
 o'qutmish ranj ila,  
 Aylamak bo'lmas ado oning haqin  
 yuz ganj ila.**

## IKKINCHI KO'RINISH

*Sahnaga Alisherbek, onasi va uyqusiragan ukasi Darvishali chiqib keladi. Ona bolalarini maktabga kuzatayapti.*

**Bayt – qo'shiq:**  
*Umring quyoshig'a bermasin charx  
 zavol,  
 Joning qamarini qilmasin davr hilol.  
 Tun-kun bo'lg'il mehravish-u mehr  
 hisol,  
 Dahr ahlig'a nurbaxsh-u farxunda  
 jamol.*

**Ona:** – Voy bolajonim-ey, har kuni kallai saharlab uyg'onib, Hayitga hozirlik ko'rganday tayyorlanib, saboqqa oshiqasiz. Muncha maktabingizni yaxshi ko'rmasangiz?

Yoki ustodlaringizning sehri bormi-a?

**Alisherbek:** – Ustozlarim ham yaxshi. Ularning darsi zilol suvga o'xshaydi. Har kim chanoqog'iga yarasha hovuchini to'ldirib olaveradi. Maktabimni ham yaxshi ko'raman. O'rtoqlarimga qarab, o'zimni baholayman. Qulog'imda qolmish, bobom aytganlar, hozir mening vazifam puxta bilim olish. Keyin bunday imkon bo'lmas emish. Bo'lganda ham, hozirgi tiniq xotira, sof idrok keyinchalik qayta bo'y bermas ekan.

**Ona:** – Ha, bolajonim, bobongiz har doimgidek haq so'zni aytibdur. Sizday mahalim men ham o'qigan abyotim borki, ikki-uch takrorda yod bo'lardi. Endi-chi? Goho o'z ismimni eslolmay, o'ylanib qolaman (*Shu tob Darvishali shoshib ortiga qaytadi*). – Hoy, Darvishali, bolam, qayoqqa?

**Darvishali:** – Davotim esimdan chiqibdi.  
**Ona:** – Qani, tez chiqing, akangiz kutib qolmasin. Kechagiday uyga kirib, uxlab qolmang tag'in. (*Alisherbekka yuzlanib*): – Alisherbek, ukangiz nega bunaqa? Bir shoxda ikki xil olma pisharmish. G'irt sizning teskaringiz. Hayronman, kimga tortdi? Siz bundayligingizda... Ha, mayli, insof berib qolar.

**Alisherbek:** – Otam ham Darvishalini ko'p erkalatadilar. Kenjatoyim deb taltaytiradilar. Siz ham gohida ortiqcha siylaysiz. Cho'ntaklari doim halvo, pista-mayizga to'la...

**Ona (kulib):** – Shunga e'tibor berarmidingiz, g'ashigiz kelarmidi? (*Engashib, Alisherbekning yuzidan o'padi*). Yo meni qizg'anasizmi?

**Alisherbek (erkalanib):** – Oz-moz (*onasini quchoqlaydi*). Asli, maktabga oshiqishimdan murod – yaxshi o'qish, yaxshi o'qishdan maqsad esa siz bilan otamga rahmat olib berish. Ustodim Ziyinatillo hoji har gal javobimdan qoniqib, barakalla, ota-onangga rahmat, deydilar. Menga shu kifoya, onajon. Men ikkingizni ham xursand qilishni, sizlarning kulib yurishingizni istayman. Biringizni Oy, biringizni Quyosh bilurmen.

**Ona (ro'moli chetini ko'ziga bosadi):** – Aylanib ketay o'zim sizdan, o'zimning dono o'g'lim, o'zimning mehribonim... Voy, ukangiz hayallab qoldi-ya? Darvishali, hoy, toychiq, akangiz ilhaq bo'b qoldi (*Chiqib ketadi. Alisherbek ham ergashadi*).

**Roviy:** – Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
 Jismni qil sadqa ano boshig'a,  
 Tun-u kuningga aylagali nur fosh,  
 Birisin Oy ayla, birisin Quyosh.

## UCHINCHI KO'RINISH

**Sahna:** – Sahroda quduqqa suyanib mudrab o'tirgan chol – Sharafiddin Ali Yazdiy namoyon bo'ladi. Qo'lida kitob bilan shoshib o'tayotgan olti yoshlar chamasidagi Alisherning ko'zi nuroniy cholg'a tushib, ilkis to'xtaydi. Kitobini ko'ksiga bosib, salom beradi.

**Alisherbek:** – Assalomu alaykum, bobo.

**Yazdiy (cho'chib ko'zini ochadi):** – Vaalaykum assalom. Iye, sen salom berdingmi, kichikintoy?

**Alisherbek:** – Ha, men.

**Yazdiy:** – Kimsan, kimning o'g'lisan? Ko'rinishingdan bu yerlikka o'xshamaysan.

**Alisherbek:** – Ismim Alisher, G'iyosiddin Bahodirning o'g'lidan. Hiroflikman. Bilasizmi, bobo, hozir Hirotda notinchlik. Shohrux Mirzo olamdan o'tgach, shahzodalar taxt talashib, bir-biriga lashkar torturlar. Oqibatda, xalq qiynalib, aziyatda qoldi. Biz ham urushdan qochib, tinchlik tilab musofirlikni ixtiyor etdik.

**Yazdiy (zavqlanib):** – Voy-bo'y, o'zing mittiginasan-u, tiling buncha byron! Qo'lingdagi qanday kitob?

**Alisherbek:** – Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayri».

**Yazdiy (hayratlanib):** – Iye-ye, bo'talog'im, buni otang o'qiydimi yo o'zing ham o'qishni bilasanmi? **Alisherbek (biroz o'ylanib):** – Bobo, savod chiqarganimga ancha bo'lgan. Bu kitobni sevib o'qib, yod olganman.

**Yazdiy (o'midan turadi):** – Yo qudratingdan, Rabbano! Senga ma'qulmi?

**Alisherbek:** – Ma'qul asar kishiga o'z-o'zidan yod bo'ladi-da.

**G'iyosiddin Bahodir shoshib kelib, Yazdiyga salom berib o'g'lini quchoqlaydi.**

**G'iyosiddin:** – Xudoga shukur, esimiz chiqayoz-di-ya, seni yo'qotib qo'ydik deb. Xayriyat, shunda ekansan. UZR, mavlono, o'g'limiz sizni behalovat etmadimi?

**Yazdiy:** – Yo'q, aksincha, manglayi yorug' farzand-ingiz suhbatidan halovat topdim.

**G'iyosiddin:** – Anavi tuyakashlar sizni Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy deb aytishdi. Shu rostmi?

**Yazdiy (kulib):** – Ha, shunaqa gaplar ham bor.

**Alisherbek (Yazdiyga hayrat to'la ko'zlar bilan qarab):** – Yo qudratingdan, Rabbano!

**Sharafiddin Ali Yazdiy Alisherni quchib, manglayidan o'padi.**

## TO'RTINCHI KO'RINISH

**Roviy:** – Biz Uyg'onish davri haqida ko'p gapiramiz. Xo'sh, u qanday davr? U qanday hodisa? Inson uyg'oq bo'lsagina ishlay oladi, fikrlaydi, o'qiydi, mehnat qiladi, natijada, farog'at topadi. Xalq ham xuddi shunday. Agar uyg'onsa, bel bog'lasa, u nafaqat o'zining qaddini rostlaydi, balki butun tevarak-atrofni, ehtimolki, dunyoning gullab-yashnashiga, taraqqiy topishiga sabab bo'ladi (*Monitordagi tasvir bilan uyg'unlikda davom etadi*). Sharqning birinchi Uyg'onish davri asoschilari kimlar edi? Ha, bizning bobolarimiz Farobiy, Buxoriy, Termiziy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy... Eh-he, sanab sanog'iga yetolmaymiz. Bu allomalar bilan nafaqat biz o'zbeklar, balki butun dunyo faxrlanadi.

Ikkinchi Uyg'onish davri sohibqiron Amir Temur shaxsiyati bilan bog'liq. Buyuk sarkarda mamlakatimizni bosqinchilardan xalos etib, hududimizni behad kengaytirdi. Natijada, poytaxt Samarqandga butun dunyodan san'atkorlar, hunarmandlar, olim-ulamolar, shoir, adiblar oqib kela boshladi. Oqibatda, Movarounnahr dunyoning madaniy poytaxtiga aylandi. Mirzo Ulug'bek, Davlatshoh Samarqandiy, Ali Qushchi, Mavlono Lutfiy, Xondamir, Kamoliddin Behzod, Muzahhib, Bobur Mirzo kabi daholar olamga ma'rifat nurini taratdilar. Ayniqsa, mir Alisher Navoiy...



**Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Sango farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biayni,  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.**

(Monitorda Alisherbek va Husayn shoqol terisi tulumiga kamondan o'q o'tib musobaqa qilishyapti).

**Husayn** (kamonga o'q joylab torta turib): – Maktabdagi Masihulloh ustozning handasa ilmi zarurati haqidagi fikrini qabul qilolmayman, Alisherbek. Men shahzoda bo'lsam, kelgusida yumushim toj-u taxt birla bo'lsa, menga hisob-kitob ilmi ne darkor? (O'qni otadi, otgan o'qi nishonga tegmaydi).

**Alisherbek** (mulozim daraxtga qadalgan o'qni sug'urib olishini kutib turadi): – Muarrixlar andoq biturlarkim, hazratim, jannatmakon Sohibqiron Amir Temur hazratlari ham ilmi kifoyani, ya'ni aniq fanlarni va ilmi farz – diniy bilimlarni puxta egallagan ekan. Shu bois, aql-u salohiyatda ul zotning tengi topilmagan (Otgan o'qi shoqolning qorniga sanchiladi).

**Mashq maydoniga Alisherbekning tog'asi Kobuliy ohista kirib keladi. Ikki do'stning suhbatiga quloq tutib, yoyandozligini maroq ila kuzatarkan, unga bosh iring'agan mulozimga barmog'ini labiga bosib «jim» ishorasini qiladi.**

**Husayn**: – Lekin dilovarlikda kuch birlamchidir. Qudrat va intizom g'alabaniy doyasi hisoblanaadi. Mening orzum bir-biri birlan yovlashib, taxt talashib yurgan temuriylar boshini qovustirmoq va yagona qudratli saltanatni tiklamoq... (O'q uzadi va nishonning yelkasiga uradi). Siz-chi? Oliy murodingiz ne?

**Alisherbek** (sadoq'idan paykon olib, tirnog'i bilan tig'ini tekshiradi, o'qning ravonligini ko'z bilan chamalab, ko'ngli to'lmay yerga sanchib, boshqasini oladi): – Men ham saltanat yaxlitligini, tinchlik-osoyishtalikni, el farovonligini orzu qilaman va... (nishonni mo'ljalga olgan o'yalanib) ona tilimni yuksaklarga ko'tarsam, hurmatini joyiga qo'ysam, boshqa tillardan kam emas, aksincha, baland ekanini isbot qilsam deyman. Shu tilda «Xamsa» yaratsam... (Otgan o'qi shoqolning bo'yniga tegadi).

Kobuliy jiyaning fikriga tan berib, mamnu'niyat ichida bosh tebratadi.

**Husayn**: – Do'stim Alisher, buning uchun shoirlik kasb bo'lishi shartmi? Bilasiz, menda ham nazm ta'bi bor. Ijod men uchun ko'ngil ishi, toj-u taxt tashvishidan ozod mahallarda birga she'r to'qisak ham bo'lur. Siz mening davlatimda bosh vazir bo'lursiz. Birga buyuk ishlarni amalga oshirgaysiz (O'q shoqolning naq yuragiga sanchiladi).

Kobuliy ularga bildirmay o'zicha duo qiladi.

**Kobuliy**: – Iloho, Husayn – mamlakat podshohi, Alisherbek esa nazm mulkingin sultoni bo'lgay! Omin! (Yuziga fotiha tortadi).

### BESHINCHI KO'RINISH

**Sahnaga zamonaviy Roviy o'ychan qiyofada chiqib, o'ziga-o'zi so'zlaydi.**

**Roviy**: – Qiziq, o'sha qadim zamonlarda, qo'l telefoni, kompyuter, avtomobil kabi qulayliklar bo'lmagan vaqtda, bobolarimiz qanday qilib bu qadar katta-katta yutuqlarga erishdi ekan? Bu savolning javobi aniq: ilm, izlanish va mehnat tufayli! Ular har bir daqiqani tilloga teng bilib, ilm-u fanni mukammal egallashga intilishgan. O'qish majburiyat emas, ko'ngilli, sevimli mashg'ulot bo'lgan. Ular mamlakat farovonligi har birimizning vazifamiz, deb yashaganlar. El shod, mamlakat obod bo'lishi uchun ochko'zlikni, manmanlikni, zulm va yomonlikni yo'q qilish kerak, deb bilishgan.

**To hirs-u havas xirmani barbod o'lmas,  
To nafs-u havo qasri baraftod o'lmas,  
To zulm-u sitam joniga bedod o'lmas,  
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas!**  
Sahnada bir to'p bolakaylar yangi o'yin boshlashmoqchi. Alisherbekning ukasi Darvishali shovqin soladi.

**Darvishali**: – Kelinglar, bugun eshakmindi o'ynaymiz!

**Birinchi bola**: – Yo'q, quloqcho'zma qiziqroq!  
**Ikkinchi bola** (qo'lidagi yotoqchani aylantiradi): – Chillak o'ynaymiz, chillak.

**Boyqaroning singilchasi**: – Quvlashmashoq o'ynaylik!

**Boshqa qizcha**: – Yashintopaloq-yashintopaloq!

**Husayn** (ensasi qotib): – Yo'q, bo'lmaydi!

**Darvishali**: – Nimasi bo'lmaydi, shahzoda hazratlari?

**Husayn**: – Eshak bo'lish bizga to'g'ri kelmaydi.  
**Darvishali** (sal kinoya aralash): – Unda otmindi o'ynaylik.

**Husayn** (xo'mrayib): – Otniyam minishadimi?  
**Alisherbek**: – Bu otning fe'li-atvoriga, asovligiga bog'liq.

**Husayn**: – Quloqcho'zma ham avomning o'yini. Quloq filning qulog'iday shalpayib tursa...

**Alisherbek**: – Gohida quloq cho'zish bilan aql ham kiradi.

**Husayn**: – Bu usul ham biz uchun emas. Chillingini ham qo'y, qovog'ariday zuvillab yurgandan ko'ra...



**Alisherbek** (kulimsirab): – Quvlashmashoq ham bizbop emas, biz faqat quvlashimiz kerak, qochish yarashmaydi.

**Husayn**: – To'g'ri. Shunaqa.  
**Darvishali**: – Unda nima o'ynaymiz? Yong'oqmi?

**Husayn** (chehrasi yorishib): – Bu boshqa gap! Birinchidan, mo'ljalga olishni o'rganasan, ikkinchidan, mazza qilib yong'oq chaqasan. (Og'iz juftlagan Darvishaliga qarab) To'g'ri, yemak-ichmakda bizda muhtojlik yo'q, shukur, birovning yong'og'iga ham qarab qolgan emasmiz, lekin baribir qo'lga kiritgan sovrining qo'lingda sharaqlab tursa, boshqacha-da.

**Bayt – qo'shiq:**  
**Bu yurushda ikki ulog'im bor,  
Lek bormen sipohiylikda yayoq.  
Iki shatranj otidek, birisi  
Ko'tara olmay o'z yeridin oyoq.**

O'yin taraddudi boshlanadi. Qizchalar davra qurib, quvlashmashoqqa sanoq aytga boshlaydi.

**Husayn** (singlisiga): – Begim, boraqoling, ichki hovlida o'ynanglar.

**Singlisi**: – Hozir, akajon, hozir. Uf, chalg'ib ketdim. (Sanog'ini davom ettiradi)

**Bir, ikki, uch, to'rt, besh,  
Gu-zar-da olti dar-vesh,  
Sen bi-lan bo'lar yet-ti,  
O'yin boshla-nib ketdi!**  
Qiy-chuv solib quvalashib sahnadan chiqib ketishadi.

**Sahna markazida bir to'p bola yong'oqdan uyum yasab, uch-to'rt odim masofadan navbat bilan mo'ljalga oladi.**

**Husayn**: – Yo'q, bunaqa yaqindan dov tikish yaramaydi. Uzoqroqdan otamiz.

**O'zi o'n odim sanab, uyumni nishonga olib yong'oq otadi. Yong'oq mo'ljalga tegmay o'tib ketishi bilan uyum yaqinida turgan Xusrav oyoq**

**uchida sochib yuboradi.**

**Xusrav** (yolg'ondakam quvonib): – Ofarin! Aniq tegdi!

**Birinchi bola**: – Qoyil! Shuncha uzoqdan-a!

**Darvishali**: – Qani, bitta-bitta yong'oqdan cho'zinglar! Yashang, shahzodam.

**Husayn**: – Navbat Alisherniki.  
**Alisherbek** (norozil): – Men o'ynamayman.

**Darvishali** (ijjayib): – Unga she'r o'qish musobaqasi bo'lsa...

**Bayt – qo'shiq:**  
**Har kishikim topsa davron  
ichra joh-u e'tibor,  
Kim, aning zotida bedod-u,  
sitam bo'lg'ay qilg'.**  
Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,  
Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'an-cha bordir yaxshilig'.

**Husayn**: – Nega o'ynamaysiz?

**Alisherbek**: – Sizga xoli gap aytсам bo'ladimi? (Ikkovi sahna chetiga kelishadi).

**Husayn**: – So'ylang! Xoli gaplashadigan qanday muhim gap ekan?

**Alisherbek**: –

Andisha so'zi. Agar bolalar yonida aytсам, do'stlik shartini buzgan bo'lardim. Shu bois... shahzodam, ma'zur tuting, hozir g'irromlik sodir bo'ldi. Otgan yong'og'ingiz nishonga tegmadi. Lekin...

**Husayn**: – Lekin hamma tegdi deb turibdi-ku!

**Alisherbek**: – Xusrav yaltoqi tepib yong'oqlarni sochib yuborganini hamma ko'rди. Siz ham... Bunaqa yolg'on g'alaba kimga kerak?

**Husayn**: – Hamma bir og'izdan tegdi deb turgandan keyin...

**Alisherbek**: – Agar sizga yaltoqlanib yolg'on so'ylashsa, bila turib ishonib ketaversangiz, oqibat ana shu yolg'onlar yo'lingizga o'tib bo'lmas g'ov bo'lmasa deb qo'rqaman.

**Husayn**: – Xushomad hukmdorning obro'yi. Qo'rqan odam xushomad qiladi. Qolaversa, men karim-ut-tarafayn – o'ta-yu ona tarafidan to'g'ridan-to'g'ri Sohibqiron hazratlari shajarasiga tutashman. Haqqim bordir?

**Alisherbek**: – Aynan Sohibqiron avlodi bo'lganingiz uchun ham xushomad-u tilyog'lamalikka yon bermasligingiz kerak. Shirin so'z odamga yoqadi. Lekin u yolg'on bo'lsa, bir kuni ilonday chaqadi. Yolg'on tufayli insonni g'afiat bosadi. Oqibatda, dog'da qolishi mumkin. Ayniqsa, g'irromlik...

**Husayn**: – Bu og'ir ayblov!

**Alisherbek**: – Ilgarigi kun chavgon o'yinida ham to'pingiz pakkaga yetib bormasa ham «g'olib» ishorasini berishdi. Kecha kurashda saboqdosha Faxriddin atay yiqilib berdi. Hech kim sezmasa ham o'zingizga ayon – u uncha-munchaga yiqiladigan bola emas. Men do'st sifatida mulzam bo'ldim, uyat chekdim.

**Husayn**: – Magarkim, men tufayli mulzam bo'lib, uyat chekar bo'lsangiz, mendan butunlay voz kecha qoling, Alisherbek!

**Alisherbek**: – Yo'q, men...  
*Husayn jahl bilan chiqib ketadi.*

**Bayt – qo'shiq**  
**Kimki o'z luk imoratin buzdi,  
Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.  
Ul imoratni buzmayin solik,  
Bo'la olmas bu naqdga molik.**

(Davomi bor)

To'liqin SAYIDALIYEV,  
iste'fodagi podpolkovnik

(Davomi. Boshi  
o'tgan sonda)

Kunduzi suvloqqa o'txo'r hayvonlar kela boshladi, lekin shervachchani to'dasidan darak bo'lavermadi.


Yana qorong'i tushdi, yana tungi hayvonlar sahnaga chiqdi. Qora panja o'z joyidan qimirlamay yotdi. Hududini aylanishga chiqqan qoplon sal qolsa sher bolasini ko'rib qolardi, yaxshiyamki, daraxt pana qildi va shamol yirtqich tomondan esardi. Shuning uchun u hech narsani payqamay qoldi. Tabiatda qoplonlar o'z raqiblari hisoblangan sher bolalarini g'ajib tashlashadi. Qora panjaning omadi bor ekan, bu qismat uni aylanib o'tdi. Qorni nihoyatda ochiqqan shervachcha ochlikdan azob chekardi, lekin qandaydir kuch uni sabr qilishga undardi.

Suvsizlikdan qaqshab yotgan savanna kengliklarida Qora panja tanho o'zi qolgandi. U har qancha ingramasin, biroq uning nolasini eshitmasdi. Qo'riqxonada xodimlari shervachchaga yordam berishni xohlashsa-da, qonun bo'yicha mumkin emasdi. Ular Qora panjaning kechinmalarini faqat olislardan kuzatib turishardi...

Shervachcha o'zi yolg'iz qolganini tushundi, lekin to'dadan umidini uzmay atrofga tez-tez alangladi. Ochiq to'qayda qolsa boshqa yirtqichlarga yem bo'lishini ichki tuyg'u orqali sezgan Qora panja ag'anab yotgan daraxtning panasiga yashirinishga majbur bo'ldi. Qurib yotgan shoxlarning orasidan qulay joy topib, pisib yotdi. Tez orada atrofga tun zulmati o'z sepini yoydi. Afrika to'qayzorlarining dahshatli tuni boshlandi. Qora panja umrida birinchi mar-

## QORA PANJANING SARGUZASHTLARI

(Hikoya)



ta tunni yolg'iz qarshiladi. Tungi hayvonlarning g'alati qichqiriqlari savannani bosib ketdi. Qulab yotgan daraxt shunday suvloqqa boradigan yo'l yoqasida edi, tunda bu yerga chanqog'ini qondirish uchun turli hayvonlar kelishardi. Birinchi bo'lib suvloqqa fillar to'dasi keldi, ulardan keyin kafr ho'kizlari, so'ngra g'izollar. Chanqog'ini qondirgan hayvonlar yana savanna bag'riga qaytib, ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Shervachcha qimirlamay joyida yotdi, faqatgina uzoqdan ikki sher sharpasini ilg'agach, yashirib yotgan joyidan chiqishga majbur bo'ldi. Lekin bu ikki urg'ochi sher begona to'dadan bo'lib, Qora panja uchun xavfli edi. Ular ko'chmanchilardan bo'lgani bois, savannada muqim joyi bo'lmay, o'lja izlab yurishardi. Yosh sher bolasi ularni ko'rib, xolalarim meni izlab keldi, deb o'ylab ular tomon talpindi. Lekin oradagi masofa qisqargan sari ularning begona ekanligini sezgan Qora panja yerga yotib oldi. Sherlar odatda, bunday qiliqni faqatgina itoatkorlik ramzi deb bildirish uchun qilishardi. Shervachcha ham ana shunday qildi, biroq ko'chmanchi sherlar tishlarini g'ijirlatib «bizdan nari tur», degandek bo'lishdi.

Yaqinlashsa uni g'ajib tashlashini tushungan Qora panja ortga chekindi. U umrida ilk bor sherlar ham o'z qavmini o'ldirishi mumkinligini his qildi. U yana ortga, pana joyiga qaytdi. Ko'chmanchi sherlar ketgach, suvloqqa sirtlonlar galasi keldi. Xunuk va etni junjiktiradigan qichqiriqlar bilan suvloqda to's-to'polon ko'tarishdi. Qora panja o'z joyida qimirlamay yotdi, hayriyat, qanday to's-to'polon bilan kelgan bo'lsa, gala shunday ko'zdan g'oyib bo'ldi. Tun shu zaylda o'tdi.

Tong otdi. Quyosh charaqlab chiqqach, Qora panja suvloqqa borib, chanqog'ini qondirib oldi.

Oradan bir hafta o'tdi. Nihoyat darajada ochiqqan shervachcha tunlarning birida tanish na'ralarni eshitib qoldi. Bu hududni belgilash uchun chiqqan erkak sherlar na'rasi edi. To'da sardorlari o'z hududlarini vaqti-vaqti bilan aylanib chiqishardi. Mana shunday yurish to'g'ri Qora panja yotgan yerga to'da boshilarni yetaklab keldi. Xursandchiligidan terisiga sig'may ketgan shervachcha otalarining bag'riga o'tildi. Qora yol birinchi bo'lib Qora panjani tanidi va uni hidlashga tushdi. So'ngra So'yloq tish va Xumbosh sher bolasini iskashti. O'zini otalari orasida ko'rgan Qora panja ularga erkalanib suykaldi. Odatda, to'da sardorlari bolalarini nari surib ketardi. Bu gal unday bo'lmadi. Qora yol yetakchi sardor bo'lib, hamma unga bo'ysinardi. U sher bolasini

yalashga tushdi. Qora panja dimog'iga yangi o'ldirilgan o'ljaning hidi gup etib urildi. Ochiqqan shervachcha bo'kirayozdi, lekin ming afsuski, sherlar yoshligida bo'kira olmaydi, u faqat g'ingshiy oldi, xolos. Yaqin o'rtadan urg'ochi sherlarning tanish irillashlari va et talashib o'kirishlari eshitildi. Qora panja ovoz kelgan tomonga yugura ketdi. Qulagan daraxtdan taxminan olti yuz metrlik chamasi narida sardor sherlar yordamida tutilgan jirafani tilka-pora qilayotgan qabiladoshlarini ko'rdi. Hech kim uning yo'qligiga e'tibor bermagandek, uning kelishi va to'da orasida paydo bo'lishi jirafa go'shtini paqqos tushirayotgan sherlarni ajablantirmadi. Qora panja o'zini o'ljaga otdi. Hech kim unga mone'lik qilmadi, chunki ko'pchilik sherlar qorinlarini to'ydirib bo'lgan edi.

O'tgan bir hafta ichida Qora panjaning xolavachchalari rivojlanishda undan juda ham o'zib ketishgan edi. Mushaklari kuchga to'layozgan sher bolalari yaxshi ovqatlangani uchun yanada baqquvatlashib, Qora panjani xuddi mushuk sichqonni o'ynagandek o'yin qila boshlashdi. Shervachcha faqat sardor Qora yol oldida o'zini erkin his qilardi va ulardan panoh izlardi. Endilikda Qora panja ko'proq vaqtini sardor sherlar yonida o'tkazar va tutilgan o'ljani birinchi yeyayotgan Qora yol unga qarshilik qilmas edi. Tez orada shervachcha to'lishib, xolavachchalariga yetib oldi. Shu zaylda kunlar o'tib, Qora panja ikki yoshga to'layotganda sardor arslonlar birdan o'zgarib qoldi. O'zidan kattaroq xolavachchalari allaqachon to'dadan quvilgan, endi navbat Qora panjaga kelgan edi. U Qora yolg'ing oldiga emaklab bordi, lekin Xumbosh uni quvib soldi.

(Davomi bor)



NAVOIY

Bizga meros qoldi g'azallaringiz,  
Yurakdan joy olgan asarlaringiz.  
Besh asrdan beri insoniyatga  
Ezgulik ulashgay hikmatlaringiz.

### SHOH VA SHOIR

Sizni atashadi ham shoh, ham shoir,  
Hikmatli so'zingiz dur-u javohir.  
Ona tuprog'ini sog'inib yashar –  
Olisda Zahiriddin Muhammad Bobur.

Munisaxon AKMALOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
62-umumta'lim maktabining  
8-«V» sinf o'quvchisi



### TURKIY OLAM GULTOJIDIR

Turkiy olam gultojidir Navoiy,  
Bunday zotni dunyo hali ko'rmagay.  
Oshiqlarning mehrojidir Navoiy,  
Ulug' zotning bo'stonlari so'lmagay.  
Farhod bo'lib nafsini qurbon qilgan-u,  
Shirin bo'lib iymon nurin taratgan.  
Sultoniga bag'ishlabon jonini,  
Haq yo'lida haqiqatni yaratgan.  
Tafakkuri sarhad qilmas ummondir,  
Qirg'og'idan qonib-qonib ichgim bor.  
Turk nazmida u xoqondir, sultondir,  
Bir kun, albat, qalamidan quchgim bor.

Shodiya YUSUPOVA,  
Qarshi shahridagi Abdulla Oripov ijod  
maktabi o'quvchisi



### SHOIR BOLAJON

Men shoir bolajonman,  
Turfa she'rilar bitaman.  
Kelajakda ko'rasiz,  
Mashhur bo'lib ketaman.  
Menga ilhom berguvchi,  
Volidam – mehribonchi.  
She'r bog'iga yetaklar,  
Ustozim – qadrdonim.  
Balki bobom xohlagan,  
Ijodkor bo'lishimni.  
Yo buvim niyat qilgan,  
Ilhom-la to'lishimni.  
Ularning orzusiga,  
Nasib bo'lsa yetaman.  
She'rilarim-la elimga,  
Halol xizmat qilaman.

Lazizbek NE'MATILAYEV,  
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi  
7-umumta'lim maktabining 4-sinf  
o'quvchisi

# BAHODIRLAR ULG'AYAR BUNDA...

**Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 284-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Feruza Eshboboyevaga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, tuman hokimligi, Xalq ta'limi bo'limi hamda harbiy qismlar tomonidan bildirilgan tashakkurnomalaridagi samimiy tilaklarni o'qib, har qanday kishining havasi keladi, albatta.**



Opaga «Tug'ma pedagog», deya ta'rif bersak, mubolag'a bo'lmas. Muallima tashkillashtirgan tadbirlarda avvallari ham ishtirok etganmiz. Ochig'i, har bir tadbir o'ziga xosligi bilan katta taassurot qoldirgan.

Vaqt o'tishini qarang, Feruza opaning pedagoglik faoliyatiga ham 40 yil to'libdi. Har gal tadbirlarda ishtirok etarkanman, ustozda o'sha-o'sha jo'shqinlik, kasbiga sadoqatning yangi qirralarini kashf etaman. U bu yil navbatdagi 1-«A» harbiy sinf rahbarligini olibdi. Bolajonlar a'zo bo'lgan «Vatanparvar jasorati» to'garagini tashkillashtirgan ham opaning o'zidir.

Navbatdagi tadbir 1-sinf o'quvchilarining

savodxonligi-yu, harbiy bilimlarini namoyish etishga bag'ishlangan ekan.

– Bugun nevaramning chiqishini kuzatib, juda xursand bo'ldim, – deydi Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh boshqarmasi moliya-iqtisodiyot bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Gulro'y opa Imomxo'jayeva. – Ota-bobolarimiz xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin, farzandlarini bolalikdan jasoratli bo'lishga o'rgatishgan. Botir, Qilich, Jasur, Rustam, Bahodir, Olmos kabi ismlar kelajakda ismiga munosib farzand bo'lsin, deya qo'yilgan. Polvonim, Lochinim, Botirim, Alpim deya bolani erkalashda ham qahramonlik sari intilish ko'zlangan. Men bugungi harbiy sinf o'quvchilarining chiqishlarini



ko'rib, aytishim mumkinki, bu o'quvchilarning shunday vatanparvar, jasoratli ustozlari Feruza opa bor ekan, demak farzandlarimiz kelajagi ishonchli qo'llarda ekan.

Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalanayotgan jajji bolajonlarimiz qahramonlik va dovyuraklikka, jasoratga intilish, mardlik an'anasiga sodiq voyaga yetayotganligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Zero, bahodirlar ulg'ayar bunda...

**Nodira NAZAROVA.**

**Zuhra NISHONOVA olgan suratlar**

## **Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida «To'garakda shakllansin iste'dodlar, yetishsin ijodkorlar!» shiori ostida to'garak ishlari faoliyati bo'yicha «Ochiq eshiklar kuni» tashkil etildi.**



«Yosh tarixchilar».



«Qo'g'irchoq teatri» to'garagi.



«Sahna yulduzlari».



«Yosh musavvirlar».



«Yosh jurnalistlar».



Bo'lajak chempionlar.



«Yosh huquqshunoslari».



«Yosh ixtirochilar».



Mard va jasur harbiylar.

**Husan TURSUNOV**

## TEST

BILIMINGIZNI  
SINAB KO'RING!

Aziz o'quvchilar! Ikki buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomlari har yili katta tantanalar bilan kutib olinadi. Nashrimizning bu sonida ikki buyuk zotga doir bilimlaringizni sinovdan o'tkazish maqsadida «Ajdodlar bilimdonlari» ruknimiz orqali testlar taqdim etmoqdamiz. Javoblarni joriy yilning 20-fevraliga qadar (+998-94-645-90-70) telegram raqami orqali yuborishingizni so'raymiz. G'oliblarni sovg'alar kutmoqda.

1. Navoiyni «Tili Andijon sheva-si bilan rost», degan shoir?

- A. Lutfiy;  
B. Bobur;  
S. Maqsud Shayxzoda;  
D. Cho'lpon.

2. Navoiyni «Navoiy suxandon», «Manzuri shahonshohi Xuroson», deya atagan alloma ...

- A. Lutfiy;  
B. Hasan Ardasher;  
S. Fuzuliy;  
D. Abdurahmon Jomiy.

3. Navoiy qaysi asarini «Shavq dostoni» deb ataydi?

- A. «Hayrat ul-abror»;  
B. «Farhod va Shirin»;  
S. «Layli va Majnun»;  
D. «Sab'ai sayyor».

4. Navoiy qaysi asarida ishqi-ni misni oltinga aylantiruvchi kimyoga va jahonni yorituvchi oynaga o'xshatadi?

- A. «Hayrat ul-abror»;  
B. «Farhod va Shirin»;  
S. «Layli va Majnun»;  
D. «Sab'ai sayyor».


5. Navoiy qaysi asari bilan o'zbek tilining muzozizi va homiysi bo'lib maydonga chiqdi?

- A. «Muhokamat ul-lug'atayn»;  
B. «Risolayi tir andohtan»;  
S. «Munshaot»;  
D. «Arbain».



1. «Yana musiqada yaxshi nimalar bog'latur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshralari bordur», deya ta'riflaganda Bobur kimni nazarda tutgan?

- A. Xisrav Dehlaviy;  
B. Abdurahmon Jomiy;  
S. Lutfiy;  
D. Navoiy.



2. «Boburnoma»da qaysi davr voqealari aks etgan?

- A. 1491–1530;  
B. 1492–1530;  
S. 1493–1530;  
D. 1494–1530.

3. «Boburnoma»da ta'kidlangan Samarqandning mashhur mevalari ...

- A. Olma va uzum;  
B. Uzum va qovun;  
S. Olma va qovun;  
D. Qovun va nashpoti.

4. «Xatti Boburiy» yozuvi kashf etilganida Bobur necha yoshda edi?

- A. 17;  
B. 18;  
S. 19;  
D. 20.

5. Boburning soliq ishlarini tartibga soluvchi asari nomi?

- A. «Mubayyin»;  
B. «Muxtasar»;  
S. «Boburnoma»;  
D. «Tuzuki Boburiya».



N. NAZAROVA tayyorladi

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

## «MUTAFAKKIR IJOD SOHIBI» TOPQIRLIK MASHQLARI

KRIPTOGRAMMA. Kalit so'zlar:

- G'azalga mansub vazn – 2, 1, 3, 11.
- So'z bilan ifodalangan tushuncha – 8, 2, 13, 4, 14.
- Alisher Navoiy hikmatlaridan:  
Oz-oz 10, 1, 9, 2, 4, 5, 17 7, 14, 4, 14 bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.
- Ilm o'qub qilmagan amal maqbul,  
Dona sochib, ko'rmadi 8, 2, 16, 6, 3, 18.
- Gavhar-u durni quloq ozori bil,  
So'zni quloqning duri 12, 2, 16, 15, 14, 1, 5 bil.

Endi shakling ichki qatorlaridagi raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi harflar bilan almashtirib, kriptogrammani hal etish orqali ulug' shoir yozib qoldirgan ikki misra hikmatni bilib oling.

KROSSVORD. Bo'yiga: 1. «Xamsa»chilikni boshlab bergan ozarbayjon mumtoz va mutafakkir shoiri. 2. «Sab'ai sayyor» dostoni qahramoni. 11. Ulug' ijod


sohibi tavallud topgan shahar. 12. Alisher ota-onasi bilan 1447–1449-yillarda yashagan Iroqdagi shahar.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 1. Adabiy janr, she'riyat. 5. Alisher Navoiy ustoz deb bilgan zamondosh mumtoz, mutafakkir shoir. 13. Ulug' shoir «Olamdagi eng aziz do'st» – deb ta'riflagan manba.

Yoylar bo'yicha: 3. Navoiy «Xamsa» asarining so'nggi dostonidagi bosh qahramon, odil, xalqparvar shoh siymosi. 4. Shoir Barot Boyqobilovning shoir nomi bilan ataluvchi xamsasi.

Diagonal bo'yicha chapga: 6. Ijod sohibining taxalluslaridan biri. 14. Alisherning tog'asi, zamonasi-ni yetuk shoiri.

«Zanjir» holida: 7. «Xamsa» asarining ikkinchi dostonidagi bosh qahramonlardan biri. 8. She'riy to'plam. 9. Adabiy janr. 10. She'r misralarida qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi bir xildagi so'zlar.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Bizning telegram raqamimiz: (94) 645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir

Axtamqul  
KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«Azmir Nashr Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy. Obuna indeksi: 198. [www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz) e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz) telegram: t.me/tongyulduz Adadi – 2005. Buyurtma – 23

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08